

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING O'RNI

Umarova Feruzabonu Bobir qizi

O'zbekiston- Finlandiya pedagogika

Institute tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogika universiteti va institutlari talabalarining kasbiy rivojlanish sharoitida kompetensiyaviy yondashuvlarga ega bo'lishlari va amaliyotdagi pedagogic madaniyati hususida so'z boradi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan pedagogic sifat va tayyorgarlik mazmuni yoritilgan.

Kalitso'zlar: Kasbiymadaniyat, kommunikativ kompetensiya, professionalta'lim, madaniyat, kompetensiya, tayyorgarlik, strategiya, ta'lim, pedagog, metodlar, oliyta'limmuassasalari.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается освоение компетентностных подходов и педагогической культуры на практике студентами педагогических вузов и институтов в контексте профессионального развития. Выделены педагогические качества и содержание подготовки, которыми должны овладеть будущие учителя.

Ключевые слова: Профессиональная подготовка, профессионал, специалист, компетентность, подготовка, стратегическое, образование, педагог, методы, высшие учебные заведения.

ABSTRACT

The article examines the development of competence-based approaches and pedagogical culture in practice by students of pedagogical universities and institutes in the context of professional development. The pedagogical qualities and content of training that future teachers should master are highlighted.

Keywords: Professional training, professional, specialist, competence, preparation, strategic, education, teacher, methods, higher education institutions.

Davlat ta'lim siyosatida hozirgi zamon ta'limining ustuvor yo'nalishi belgilangan, bu - hozirgi zamon insonparvar konsepsiya kontekstida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishdir. Eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyat, xususan, pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishyo'nalishidagiishlar tamillashtirilishi lozim.

Shu munosabat bilan ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassis shaxsi, uning kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi, ayniqsa, intellektual-ijodiy, faoliyatli-amaliy va ijtimoiy-kommunikativligi, uning kasbiy madaniyat - pedagogik muloqoti ustuvorligiga alohida e’tibor qaratilgan. Oliy pedagogik ta’lim oldida bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish orqali ularni kelgusidagi pedagogik faoliyatga yanada sifatli tayyorlash vazifasi turibdi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiyalarning ahamiyati katta. Kommunikativ kompetensiyalar shaxsda fikr almashuvi bilan bog‘liq muloqot madaniyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o‘quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo‘lib, nihoyatda, murakkab jarayonda takomillashadi.

Kommunikativ kompetensiya - murakkab kommunikativ ko‘nikma va ko‘nikmalarini egalik, yangi ijtimoiy tuzilmalar etarli ko‘nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniy normalar va cheklovlar bilim, aloqa sohasida bojxona, urf-odatlari, etiket, odob-axloq, ta’lim, aloqa vositalari oriyentatsiya bilim, milliy, sinf mentalitetiga xos va, bu kasb doirasida ifodalangan. Kommunikativ kompetensiya — bu muloqot qobiliyatları, bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar, biznes aloqlari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o‘z ichiga olgan shaxsnинг umumiyy komunikativ xususiyatlarini rivojlantirish uchun shaxsni ukitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini uzida jo kiladigan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiyalarning tatbiq etish, ularning xulq-atvor madaniyati, ta’lim jarayonida pedagogik kasbiy obrazni yaratishga qaratilgan taddiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- muloqot qilish kerak bo‘lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish;
- muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan texnologik dasturlash, kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligiga asoslangan;

- kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni loyihalashtirish. Kommunikativ kompetensiya umumiyy pedagogik madaniyatni va uning professional faoliyatida o‘ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetensiyalar shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishda tayyorgarlik ko‘rish. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

1. Psixologik tayyorgarlik yo‘nalishi o‘z-o‘zini anglashda, atrofdagilarni anglashda, shaxsnинг rivojlanishining psixologik qonun-qoidalarni aks ettiruvchi psixologiya sohasidagi bilimlar tizimini chuqur o‘rganib va amaliyotda qo‘llay olishi: bilish jarayonlarining psixologiyasini o‘zlashtirishi; o‘zining (atrofdagilarning) harakatlarini boshqarish uchun shaxs psixologiyasini o‘rganish; kasbiy faoliyatning intellektual va axloqiy rivojlanishi uchun insonlararo muloqot psixologiyasini o‘rganish; o‘qituvchining pedagogik jamoa va talabalar bilan o‘zaro muloqot qilishda; o‘z-o‘zini anglagan holda o‘z shaxsini o‘zgartirib borishda zarur bilim, tajriba va ko‘nikmalarni egallash, psixologik jihatdan takomillashib borish, shaxsiy (hamda atrofdagilarning) psixologik holatini inobatga olgan holda qaror qabul qilish.

2. Didaktik tayyorgarlik yo‘nalishi talabalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan hamda shaxsning intellektual va axloqiy-estetik jihatdan takomillashib borishiga imkon beruvchi; zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishib borish va ularning asoslarining o‘zlashtirilishiga; ilg‘or pedagogik (shu jumladan yangi g‘oyalarning) tajribaning joriy etilishiga imkon beruvchi pedagogik jarayonlarni tashkil etish asoslarini egallahsdan iborat.

3. Uslubiy tayyorgarlik yo‘nalishida o‘qituvchining uslubiy madaniyat asoslarini umumiyligida egallahga ko‘maklashuvchi, umumiyligida fikrlash va muloqot qilish, dunyoqarashlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning umumiyligida qonun-qoidalarini, tarbiyalash va ta’lim berish vositalari va usullarini egallahga e’tibor qaratiladi.

4. Tarbiyaviy tayyorgarlik yo‘nalishi o‘qituvchi va talabalarining insonparvarlik ruhida o‘zaro muloqot yuritish psixologiyasini o‘zlashtirishga imkon yaratuvchi; tarbiyalashni tashkil etish tizimini egallahga, shaxsni ruhiy jihatdan takomillashtirib borishga, qadriyatlarga yo‘g‘rilgan madaniy-axloqiy hamda jamiyatda o‘z o‘rniga ega idellarga mos komil insonni tarbiyalash ishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini (talabalarining shaxsini o‘rganish, masalalarni aniq belgilab olish, rejalashtirish, tashkil etish, o‘tkazish va tartiblashtirish, tarbiyaviy ishlarining natijalarini baholash va tahlil qilish) egallahga qaratilgan ishchi, rolli va obrazli o‘yinlar olib borish, treninglar o‘tkazish tizimini tashkil etishni ishlab chiqishdan iborat.

5. Kommunikativ tayyorgarlik yo‘nalishi shaxsning pedagogik hamda umummadaniy o‘sishida munosabatlarini meyorida saqlash va tartibga solish maqsadida psixologik va pedagogik bilimlarning yangilanishi, chuqur o‘zlashtirilishi, juft bo‘lib, guruhlarda, ishchi jamoada muloqotga kirishish tajribasi va ko‘nikmalarini amalda ishlab chiqish yo‘nalishidan iborat.

6. Ilmiy tadqiqotchilik va innovatsion faoliyatga tayyorgarlik yo‘nalishida talabalar muammolarni aniqlash; ilmiy farazlarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalana olish; tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik jihatdan qayta ishlash; pedagogika innovatikaning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan pedagogik neologiya, pedagogik aksiologiya va pedagogik praksiologiya bo‘yicha faoliyatni tashkil eta olish, novatorlik kabi kompetensiyalarni o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

7. Akmeologiya tayyorgarlik. Akmeologiya – bu shaxsning kasbiy rivojlanishi jarayonida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishishi (grekcha "akme" – cho‘qqi) bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy fan. Ushbu fan kasbiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish uchun shaxsning ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini o‘rganadi. O‘qituvchi faoliyatida akmeologik tayyorgarlik deganda, uning kasbiy rivojlanishining maksimal darajaga erishishi va pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar tushuniladi.

O‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyalarning rivojlantirishda akmeologik yondashuv quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Kasbiy madaniyat rivoji: o‘qituvchining o‘z faoliyatida yuqori darajadagi mahoratga erishishi.
- Shaxsiy o‘sish va o‘zini takomillashtirish: o‘qituvchi o‘zini doimiy ravishda rivojlantirish, yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish orqali professional cho‘qqiga intilishi kerak.

-Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonini samarali tashkil etish.

-O‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish: O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarga o‘z bahosini berish va kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-ton.

2.Shoymardonov T.T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O‘quv-uslubiy majmua. –T.: 2016. 165-bet.

3.QurbanovA.A. “Talabalarda intellektual kompetentsiyalarning rivojlantirishning tarkibiy qismlari”. Maqola. 2022 y. 2-bet.

4.Yusupova. D.S. “Malakali pedagokik faoliyat orqali qobiliyatli bolalarni aniqlash” International scientific journal, ISSN: 2181-3337 2022 #3 5.

5. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. -T.:“Sano-standart”, 2015. – 120 b.

6. Olimov Sh.Sh, Sh.X. Samiyeva, Yu.Z. Saidova. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. Darslik. -Buxoro, 2023.

7. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.